

СЎЗ САЊАТИ ХАЛҚАРО ЖУРНАЛИ

8 ЖИЛД, 3 СОН

МЕЖДУНАРОДНЫЙ ЖУРНАЛ ИСКУССТВО СЛОВА

ТОМ 8, НОМЕР 3

INTERNATIONAL JOURNAL OF WORD ART

VOLUME 8, ISSUE 3



СЎЗ САНЪАТИ ХАЛҚАРО ЖУРНАЛИ

МЕЖДУНАРОДНЫЙ ЖУРНАЛ ИСКУССТВО СЛОВА | INTERNATIONAL JOURNAL OF WORD ART

№3 (2025) DOI <http://dx.doi.org/10.26739/2181-9297-2025-3>

Бош муҳаррир:
Тўхтасинов Илҳом
п.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

Бош муҳаррир ўринбосари:

Главный редактор:
Тухтасинов Илхом
д.п.н., профессор (Узбекистан)

Заместитель главного редактора:

Editor in Chief:
Tuhtasinov Ilhom
DSc. Professor (Uzbekistan)

Deputy Chief Editor

ТАҲРИРИЙ МАСЛАҲАТ КЕНГАШИ

Назаров Бахтиёр
академик. (Ўзбекистон)

Якуб Умарўғли
ф.ф.д., профессор (Туркия)

Алмаз Улви Биннатова
ф.ф.д., профессор (Озарбайжон)

Бокиева Гуландом
ф.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

Миннуллин Ким
ф.ф.д., профессор (Татаристон)

Махмудов Низомиддин
ф.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

Керимов Исмаил
ф.ф.д., профессор (Россия)

Жўраев Маматкул
ф.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

Куренов Рахиммаед
к.ф.н. (Туркменистон)

Кристофер Жеймс Форт
Мичиган университети (АҚШ)

Умархўжаев Мухтор
ф.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

Мирзаев Ибодулло
ф.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

Болтабоев Ҳамидулла
ф.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

Дўстмухаммедов Хуршид
ф.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

Лиходзиевский А.С.
ф.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

Сиддиқова Ирода
ф.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

Шиукашвили Тамар
ф.ф.д. (Грузия)

Туробов Бекпулат
масбул котиб, PhD, доцент
(Ўзбекистон)

РЕДАКЦИОННЫЙ СОВЕТ

Назаров Бахтиёр
академик. (Узбекистан)

Якуб Умар оглы
д.ф.н., профессор (Туркия)

Алмаз Улви Биннатова
д.ф.н., профессор (Азербайджан)

Бакиева Гуландом
д.ф.н., профессор (Узбекистан)

Миннуллин Ким
д.ф.н., профессор (Татарстан)

Махмудов Низомиддин
д.ф.н., профессор (Узбекистан)

Керимов Исмаил
д.ф.н., профессор (Россия)

Джураев Маматкул
д.ф.н., профессор (Узбекистан)

Куренов Рахыммаед
к.ф.н. (Туркменистан)

Кристофер Жеймс Форт
Университет Мичигана (США)

Умархаджаев Мухтар
д.ф.н., профессор (Узбекистан)

Мирзаев Ибодулло
д.ф.н., профессор (Узбекистан)

Балтабоев Ҳамидулла
д.ф.н., профессор (Узбекистан)

Дустмухаммедов Хуршид
д.ф.н., профессор (Узбекистан)

Лиходзиевский А.С.
д.ф.н., профессор (Узбекистан)

Сиддиқова Ирода
д.ф.н., профессор (Узбекистан)

Шиукашвили Тамар
д.ф.н. (Грузия)

Туробов Бекпулат
отв. секретарь, PhD, доцент
(Узбекистан)

EDITORIAL BOARD

Bakhtiyor Nazarov
academician. (Uzbekistan)

Yakub Umarogli
Doc. of philol. scien., prof. (Turkey)

Almaz Ulvi Binnatova
Doc. of philol. scien., prof. (Azerbaijan)

Bakieva Gulandom
Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

Minnulin Kim
Doc. of philol. scien., prof. (Tatarstan)

Mahmudov Nizomiddin
Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

Kerimov Ismail
Doc. of philol. scien., prof. (Russia)

Juraev Mamatkul
Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

Kurenov Rakhimmamed
Ph.D. Ass. Prof. (Turkmenistan)

Christopher James Fort
University of Michigan (USA)

Umarchodjaev Mukhtar
Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

Mirzaev Ibodulla
Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

Boltaboev Hamidulla
Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

Dustmuhammedov Khurshid
Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

Lixodzievsky A.S.
Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

Siddiqova Iroda
Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

Shiukashvili Tamar
Doc. of philol. scien. (Georgia)

Turobov Bekpulat
PhD Ass. prof. Senior Secretary
(Uzbekistan)

PageMaker | Верстка | Саҳифаловчи: Хуршид Мирзахмедов

Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz
ООО Tadqiqot город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; E-mail: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; E-mail: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000

1. Nurmatova Zarifa Abdiraup qizi IKKI TILDA MULOQOT QILADIGAN BOLALARNING NUTQIGA XOS XUSUSIYATLAR.....	5
2. O‘tamuradova Malohat ALISHER NAVOIY MEROSI NURBOY JABBOROV TADQIQOTLARIDA.....	9
3. Петросьянц Эрнст Ашотович ОККАЗИОНАЛИЗМЫ, МОТИВИРОВАННЫЕ ИМЕНАМИ СОБСТВЕННЫМИ ПОЛИТИКОВ В АНГЛОЯЗЫЧНОМ МЕДИАДИСКУРСЕ.....	13
4. Jo‘raqulova Mushtariy Abdumalik qizi O‘ZBEK VA INGLIZ TILLARIDA SPORT TERMINLARINING YASALISH PARALLELIGI TADQIQI.....	23
5. Gulamova Malika Yakubovna O‘ZBEK VA ITALYAN TILLARIDA NUTQIY STRATEGIYALAR VA UNDAH USULLARI.....	27
6. Achilova Ozoda Farxodovna YAPON TILIDAGI MAQOLLARNI O‘ZBEK TILIDA MUQOBILLASHTIRISHDA TAYANILADIGAN OMILLAR.....	32
7. Nematillayevna Zubaydova PROBLEMS RELATED TO THE COMPARATIVE ANALYSIS OF LANGUAGES IN THE DEVELOPMENT OF LINGUISTICS.....	36
8. Насруллаева Тозагуль Сухробовна ПРАГМАТИЧЕСКИЕ И ЭТИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ ПЕРЕВОДА В РОМАНЕ ТЕОДОРА ДРАЙЗЕРА «ФИНАНСИСТ».....	39
9. Mo‘minova Ma’suma G‘olib qizi SUV LEKSEMASI TAHLILIGA OID QIYOSIY-TARIXIY, SISTEM-STRUKTUR YO‘NALISHDAGI TADQIQOTLAR.....	43
10. Xamrayeva Zebiniso Xaydarovna MURAKKAB SINTAKTIK TUZILMALARNING IYERARXIK VA FUNKSIONAL TIZIM DOIRASIDAGI DERIVATSION VA SEMANTIK TAHLILI.....	53
11. Malika Solieva PHONOLOGY AND CULTURE: LINGUISTIC ASPECTS OF INTERACTION.....	58
12. Kodirova Shaxnoza Abduraxmonovna “MIMIKA, JEST VA BOSH HARAKATLARI KABI NOVERBAL MULOQOTNING QIYOSIY, LINGVOMADANIY TAHLILI.” (YAPONIYA, O‘ZBEKISTON VA BOSHQA MAMLAKATLAR MISOLIDA)...	61
13. Shamuradova Naima Muxtarovna DISCOURSIIVE AND PRAGMATIC FEATURES OF PROVERBS EXPRESSING VERBAL POLITENESS IN ENGLISH AND UZBEK LANGUAGES.....	66
14. Ziyadullayev Abubakir Ibodulla o‘g‘li STENDAL IJODIDA ROMANTIZM VA REALIZMNING TA‘SIRI (“Qizil va qora” hamda “Parma monastiri” asarlari misolida).....	70
15. Tashkulova Zarnigor “SHARQ” KONSEPTINI S.MOEM ISHLARIDA REPREZENTATSIYASI XUSUSIYATLARI VA AHAMIYATI..	74
16. Jo‘raqulova Mushtariy O‘ZBEK TILI PARALLEL KORPUSINING LINGVISTIK TA‘MINOTI.....	79
17. Davlatova Hulkaroy Uktamovna TILSHUNOSLIKDA GENDER TUSHUNCHASINING TADQIQI: BOLALAR NUTQI MISOLIDA.....	84

18. Зулфанова Нигина Нуритдиновна СТРУКТУРА ФРЕЙМА «ТВОРЧЕСТВО» ИНТЕЛЛЕКТУАЛЬНОГО РОМАНА «А.МЁРДОК «THE BLACK PRINCE».....	93
19. Turakulova Sitora Fazlidinovna JANUBIY KOREYALIK YOZUVCHI KON JIYONNING “BIZNING BAXTLI DAMLARIMIZ” ROMANIDAGI OBRAZLAR RUHIYATI TASVIRI.....	98
20. Nurimbetova Dilnaz Yeshmuratovna "MILLIY TAOM" REALIYALARI VA ULARNING TARIXIY KONTEKSTI.....	104
21. Erkinova Ruxshona O‘tkirovna, Kurbonova Gulnoza Irkinovna YAPON VA JAHON ILMIY-FANTASTIKA (SF) ADABIYOTI QIYOSIY TAHLILI.....	109
22. Qayimova Maftuna Tursunovna OILAVIY MUHITDA QIZLARING EMOTSIONAL INTELLEKTINI RIVOJLANTIRISH: IJTIMOIIY PEDAGOGIK YONDASHUV (O‘ZBEKISTONDA).....	114
23. Хасанова Мавлюда Батыралиевна ФИЛОЛОГИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ ГОСУДАРСТВЕННОГО ДИСКУРСА СОЦИАЛЬНОЙ ЗАЩИТЫ В УЗБЕКИСТАНЕ.....	117
24. Iskandarova Aybibi Raximbayevna “QIYOMAT” ROMANIDAGI FRAZEMALARNING XOSLANISHIGA DOIR AYRIM MULOHAZALAR.....	125
25. Barno Abdusattarovna Mirsharipova PAK VANSO ASARLARINING RUS TILIGA TARJIMALARIGA DOIR.....	134
26. Muslimova Shahnoza Sunnatovna YOM SANSOP HIKOYALARIDA HAYOT VA O‘LIMNING YANGI IFODASI.....	139
27. Anorqulov Sanjar Iskandarovich TILSHUNOSLIKDA TOPONIMIK KONSEPT VA UNING ASOSIY XARAKTERISTIKALARI.....	144
28. Karimboyeva Charos Ikrom qizi SIROJIDDIN SAYYID VA BAXTIYOR GENJEMUROD SHE‘RIYATIDA TUSH OBRAZI.....	148
29. Mirvaliyeva Dildora Anvarovna DAVLAT TILIDAGI AXBOROT USLUBI MATNLARINING ELEKTRON TA‘MINOTI .HUJATCHILIKDA IMLO VA TINISH BELGILARI.....	153
30. Abduraxmonova Nilufar Zaynobiddin qizi, Abdullayeva Nasima Murodullayevna O‘ZBEK TILI ELEKTRON KORPUSI UCHUN DIALEKTAL SUBKORPUSINI YARATISH MASALALARI.....	157
31. Mirsanov G‘aybullo Qulmurodovich ASPEKTUAL SEMANTIKANING KOGNITIV MAZMUNI.....	166
32. Shamaxmudova Aziza Furkatovna MILLIY XARAKTER VA XUSHMUOMALILIK: ISPAN TIL SOHIBLARI TAFAKKURIDA HURMAT TAMOIYILLARI.....	170
33. Said-Axmedova Shoxista Nuritdinovna AGENTIV SINTAKSEMALARINING NAZARIY ASOSLARI.....	176




ISSN: 2181-9297

www.tadqiqot.uz

Jo'raqulova Mushtariy
Tadqiqotchi

O'ZBEK TILI PARALLEL KORPUSINING LINGVISTIK TA'MINOTI

 <https://doi.org/10.5281/zenodo.18734030>

ANNOTATSIYA

Rivojlangan davlatlarda parallel korpuslarga doir bir qator tadqiqotlar qilingan bo'lib, kompyuter lingvistikasining rivojlanishida muhim manba hisoblanmoqda. Parallel korpus asosida matndagi turli elementlarning leksik, sintaktik, morfologik funksiyalarini tushunib yetish, ularga har tomonlama mos muqobillar topish keng qamrovli va murakkab jarayon hisoblanadi. Parallel korpus faqatgina mashina tarjimasi uchun lingvistik resurs bo'libgina qolmay, qiyosiy tarjima, avtomatik tarjima, chog'ishtirma tilshunoslik kabi sohalar uchun muhim hisoblanadi. Tarjima tillarining o'zaro munosabati, aloqadorligi va taraqqiyoti ularning rivojlanish sur'atini jadallashtiradi, lug'at boyligini oshiradi va takomillashtiradi.

Kalit so'zlar: Parallel matn, parallel korpus, segment birlik, terminalogik baza, tarjima xotirasi.

Jurakulova Mushtariy
Researcher

ABSTRACT

A number of studies on parallel corpus have been conducted in developed countries and are an important source in the development of computer linguistics. Understanding the lexical, phraseological, grammatical functions of different elements in the text on the basis of a parallel corpus, finding alternative alternatives to them in all respects is a comprehensive and complex process. Parallel corpus is not only a linguistic resource for machine translation, but also important for fields such as comparative translation, automatic translation, and comparative linguistics. The interrelationships, interrelationships and development of translation languages accelerate their development, increase and improve the richness of vocabulary.

Key words: Parallel text, parallel corpus, segment unit, terminological base, translation memory.

Журакулова Муштарий
Исследователь

АБСТРАКТ

Ряд исследований по параллельному корпусу был проведен в развитых странах и является важным источником в развитии компьютерной лингвистики. Понимание лексических, фразеологических, грамматических функций разных элементов текста на основе параллельного корпуса, нахождение им альтернативных альтернатив во всех отношениях

представляет собой комплексный и сложный процесс. Параллельный корпус — это не только лингвистический ресурс для машинного перевода, но также важный для таких областей, как сопоставительный перевод, автоматический перевод и сравнительная лингвистика. Взаимосвязь, взаимосвязь и развитие языков перевода ускоряют их развитие, увеличивают и улучшают богатство словарного запаса.

Ключевые слова: Параллельный текст, параллельный корпус, сегментная единица, терминологическая база, память переводов.

Parallel korpus bu matnlar yig'indisi bo'lib, boshqa tildagi tarjimalar birlashtirilgan matnlar to'plamidir. Hozirgi kunda parallel korpus tillararo tadqiqotlar uchun juda foydali manba ekanligi barchamizga ma'lum. So'nggi yillarda tilshunoslikning turli xil sohalarida xususan, tipologiya, tarjimashunoslik, leksikografiyada emperik asos bo'ldi.

Parallel matnlar korpusi yordamida konkordanser dasturlar ishlab chiqiladi va turli xil ixtisoslik lug'atlari tuzish imkoniyati yuzaga keladi. D.Dobrovolskiy parallel korpusga shunday ta'rif beradi: "Parallel korpus – asl va tarjimadagi elektron matnlar yig'indisidan iborat korpus. Asl va tarjima matnlar shunchaki yonma-yon qo'yilmaydi, balki bu ikki matndagi gap(sistaktik birlik)lar mazmunan mos kelish darajasida bo'lakka bo'linib, mana shu birliklar yonma-yon, bir-biriga ishora havola qilish holatida turadi. Asliyatdagi matn fragmentiga mos keluvchi tarjimadagi fragment belgilab qo'yilgan bo'ladi. Aynan mana shu holat bunday korpuslar yordamida turli lingvistik amallar bajarishga imkon yaratadi"[1].

Parallel matn uchun segmentlash jarayonida bir qancha muammoli masalalar mavjud. Bu jarayon so'zni so'z bilan tekislaganda ham bir qator sabablarga ko'ra deyarli imkonsiz bo'lib chiqadi: tokenlar to'plami, turli tillardagi barqaror iboralar mos kelmaydi. Shuningdek, tekstlar jumlar bo'yicha tekislanadi, ammo bu holda muammolar paydo bo'lishi mumkin: jumlar yoki paragraflar soni ham farq qilishi mumkin.

Shuningdek, mutaxassislarimizning ta'lim sohasidagi innovatsion va eksperimental faoliyatining qo'llab-quvvatlanishi ham, eng yangi innovatsion texnologiyalarni ta'lim tizimiga joriy qilinishini ta'minlash va bu orqali ta'lim samaradorligining yuqori bo'lishiga erishishga qaratilgan.

Also, the support of the innovative and experimental activities of our experts in the field of education is aimed at ensuring the introduction of the newest innovative technologies into the educational system and thereby achieving higher educational efficiency.

O'zbek tilidagi ilmiy matnning ingliz tiliga qilingan tarjimasini misol qilib oladigan bo'lsak, so'zlarni so'zlar bilan tekislash muammo keltirishini o'z isbotini topadi. O'zbek tilidagi so'zlar soni ingliz tilidagi tarjima bilan bir xil emasligini shu jumla orqali izohlaymiz. O'zbek tilida berilgan namunada 28 ta so'z o'rin olgan lekin ingliz tiliga tarjima qilinganda so'zlar soni 38 ta so'zni tashkil qiladi.

So'zlarni ajratishda ushbu holatda ikki bosqichli Giza++ [2] instrumentidan foydalanilgan. Ikki bosqichli texnologiyada dastlab bevosita juftlikdagi parallel korpuslar stemmizatsiya qilinadi (so'z shakllari asoslarga ajratiladi). So'ngra ichki moslashish jarayoni olib boriladi. Olimlarning fikricha, "ei...en" va "fi...fn" parallel matnlardagi ikki shartdan biri mavjud bo'lsa, hisobga olinadi: agar ei va fi lug'atda mavjud bo'lsa, uning birligi sifatida yoki ei va fi lar ej yoki fjholati bilan lug'atda mavjud bo'lmaydi. Oxirgi jarayonda Giza++dan ikki fayl olinadi. Shu tarzda ma'lumot ustida amal bajariladi. Matnni segmentlarga ajratish jarayoni gaplarni morfologik analizi uchun kerakli manba hisoblanadi. Shu tarzda korpusdan olingan segment birliklarni stem (asos) va morfemalarga ajratish tarjima modelini voqealantirishda muayyan darajada rol o'ynaydi.

Parallel matnlarning mos juftliklarini tuzish uchun inson tomonidan tahrir qilingan matnlar kiritilishi kerak. So'ng lug'at orqali matnda uchragan segment birliklarga qarab avtomatik tarzda tarjima birliklari aniqlanadi. Shu sababli ikki tilga mos leksik va grammatik jihatdan ishlab chiqilgan mos variantlar lug'atda bo'lishi tarjima matnni to'g'ri chiqishiga yordam beradi.

Parallel matnlarni to'g'rilash jarayonida ikkala til (tarjima va asl) matnidagi bir-biriga to'g'ri keluvchi gap, abzaslarni identifikatsiyalanadi.

Parallel korpuslar yordamida soʻz va soʻz birikmalarining oʻzaro valentliklarini aniqlashda hamda muayyan guruhga kiruvchi leksik-semantik guruhdagi soʻzlarning semantik maydonini aniqlashda, mashina tarjimasini uchun tarjima sifatini oshirishga xizmat qilganida oʻz aksini topadi.

Ilmiy va texnikaviy terminlarni oʻrganish va ularning mos variantlarini matnlarni avtomatik tarjima qilish terminologik baza uchun muhim manba hisoblanadi. Terminlarning sohaviy lugʻatlarining yaratilishi, tarjima sifatini oshiradi.

Terminografiyada quyidagi masalalar oʻrganish ilgari suriladi:

- 1) U yoki bu terminning ikkinchi bir tilda aynan mavjud boʻlmasligi;
- 2) Terminlarning soʻz birikmalari tarzida ifodalanishi;
- 3) Matnning uslubini aniqlash va ilmiy terminlarning maʼnolarini uslubga koʻra oʻzgarishi;
- 4) Muayyan soha doirasida bir leksemaning turli maʼnoda qoʻllanilishi.
- 5) Muayyan terminning bir necha sohada turli shaklda ifodalanishi.

A.A Reformaskiyning nuqtai nazaricha, terminologiya ogʻzaki ifodada mos ravishda mustahkamlangan, muayyan fanning tizimlashtirilgan tushunchasidir[3].

Terminlarning yasalishi uch usul bilan amalga oshiriladi: semantik, morfologik, sintaktik. Terminlarning semantik usul bilan yasalishiga metoforik va metonimik maʼnolarning boshqa terminologiya bilan bogʻliq holda xususiylashishi xos. Bunga transpozitsiya va transmutatsiya hodisalarini keltirish mumkin. Morfologik usul bilan termin yasashda suffiksatsiya, prefiksatsiya, konversiya va asosni oʻzlashtirish hodisalarini yetakchilik qiladi. Sintaktik usul bilan termin yasashda transformatsion usulning oʻrni sezilarli. Bundan tashqari konkretizatsiya, generalizatsiya, kompensatsiya, transliteratsiya, eksplikatsiya, amplifikatsiya, maʼno differensiyalashuvi va h.k. hodisalarini ham nazardan qochirmaslik kerak[4].

Fanga mashhur inglizcha Webster lugʻatidagi 600 000 soʻzdan 500 000 tasining mutaxassislikka oid leksemalardan tashkil topgani terminologiyani chuqur tahlil etishni taqozo etadi[5]. Ilmiy-texnikaviy terminlar jamiyatning barcha sohalarida qoʻllaniladi. “London Computer Integrated Translation GmbH” (1987) koʻrsatgan maʼlumotlarga koʻra, dunyo boʻyicha ilmiy texnikaviy matnlarni tarjima qilish hajmi yiliga 200 mln sahifani tashkil etadi, bu esa har yili 15% oshib borayotganligini tasdiqlaydi[6]. Shu oʻrinda ilmiy matnlarni kompyuter yordamida tarjima qilish mazkur jarayonni optimallashtirishga koʻmak beradi.

XX asrning oʻrtalarida ilmiy matnlarni tarjima qilish anʼanasi shakllandi. Ilmiy matnlarni tarjima qilishning strategik tushunchalari V.Z.Demyankov, R.Karnap, A.N.Kryukov, Ye.S.Kubryakov, J.Lakoff, M.V.Nikitin, M.Terner, J.Fokone, R.Shenk kabi atoqli tilshunoslarning gʻoyalaridan oziqlandi[7].

Terminografiya vazifalariga:

- 1) chegaralangan leksemalarning har bir lingvistik sathlar boʻyicha formal va modellashtirilgan tavsifini berish;
- 2) matn-matn munosabati oʻrtasida turgan umumiy va farqli lisoniy paradigmalarni aniqlash;
- 3) avtomatlashgan terminologik bazani shakllantirish;
- 4) ilmiy matnlarga oid leksik, morfologik va sintaktik xususiyatlarni ikki til boʻyicha solishtirish va ularni oʻxshash hamda farqli jihatlari boʻyicha kategoriyalarga ajratish;
- 5) ikki tilli ilmiy matnlarda qoʻllanadigan leksemalarning miqdori boʻyicha sinonimik, omonimik va polisemantik tizimini tuzish orqali ularning dominantini bazaga kiritish kabilar kiradi[8].

Terminologiya – ilmiy matnning yadrosi boʻlgani tufayli terminlar ularning kalit soʻzlaridir.

Tarjima xotirasi uchun qilinayotgan tarjima materiallari (soʻz, soʻz birikmasi, ibora) toʻgʻri tanlanishi; segmentlash va tarjima jarayonida yoʻl qoʻyiladigan xatolar tarjimon va tilshunoslarning tamonidan qayta tahrirlanishiga ham bogʻliqdir. Soʻz konkordanslarini aniqlash va ilmiy uslubdagi matnda qoʻllanilgan terminlar uchun maxsus maʼlumotlar bazasining shakllantirilishi, ajratib olingan matnlardagi til va nutqiy birliklar alohida jadval shakliga keltirilishi tarjima dasturi uchun dastlabki bosqichlardan biridir. Segmentlash jarayoni toʻliq yakuniga yetkanidan soʻng barcha parallel matnlar tarjima xotirasiga yuboriladi[9].

Ilmiy asosidagi parallel matnlar korpusida terminlar bilan bog‘liq muammolar bo‘lishi aniq. O‘zbek tili mashina tarjimasini uchun asosiy masalalardan biri bu terminlarning tarjimasini to‘g‘ri amalga oshirish hisoblanadi. Lingvistik ta‘minotda terminlar lug‘atining to‘liq berilishi tarjima sifatini yaxshilaydi. Qolaversa, soha mutaxassislari uchun kompyuter texnologiyalardan foydalanishning bir qator afzalliklari bor. Chunki termin sifatida yangi kirib kelgan so‘zlarning tarjimasini to‘g‘ri tushunishda hamda muayyan terminning turli sohada qo‘llanishi, turlicha ma‘noni anglatgani sababli ularning lingvistik bazasini yaratish kerak ekanligini ko‘rsatadi. Ochiq manbali terminologik ma‘lumotlar bazasini loyhalashtirishdan ko‘zlangan asosiy maqsad fan va sohalarni o‘rganishda terminologik ma‘lumotlarning umumiy bazasi yo‘qligi bir qator qiyinchiliklarga olib keladi. Bundan tashqari mashina tarjimasida terminlarning tarjimasini to‘g‘ri amalga oshirish, terminlar lug‘atining to‘liq berilishi tarjima sifatini oshirishda katta ahamiyatga ega.

Ochiq manbali terminologik ma‘lumotlar bazasini loyhalashtirishda quyidagi ishlarni bajarishimiz kerak bo‘ladi:

1. Fan va sohalarga oid terminologik adabiyotlardan foydalangan holda boshlang‘ich terminologik ma‘lumotlar bazasini yaratib olishimiz lozim;
2. Internetda onlayn qidiruv tizimidan foydalanib ma‘lumotlar bazasini boyitib borishni yo‘lga qo‘yish;
3. Fan va sohalarda mutaxassislari o‘z sohasining yangi terminlarini bazaga kiritish imkoniyatini yaratilishi;
4. Terminologik ma‘lumotlar bazasini ochiq manbali qilish imkoniyatlarini ko‘rib chiqish;
5. Ochiq manbali terminologik ma‘lumotlar bazasini aniqliligini oshirish va uni himoyalash[10].

Fan va sohalarni o‘rganishda ya‘ni terminlar mohiyatini to‘g‘ri va to‘la qonli anglab yetishda ochiq manbali terminologik ma‘lumotlar bazasining o‘rni salmoqli darajada hisoblandi.

Xulosa qilib yozadigan bo‘lsak, matn turlarining hech biri parallel korpus matnlari uchun barqaror manba bo‘la olmasligini, parallel korpuslar tarjimashunoslikda kerakli resurs sifatida qaraladi va terminologik ma‘lumotlar bazasini yaratishda foydalaniladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Добровольский Д. Какие задачи решают параллельные корпуса. (Электрон ресурс): <https://postnauka.ru/video/54851>
2. Och, Franz J. 2000. Giza++: Training of Statistical Translation Models. A available at <http://wwwi6.informatik.rwthachen.de/och/software/GIZA++.html>.
3. Реформатский А.А. Что такой термин и терминология? / Вопросы терминологии. –М., 1961. –С. 49.
4. Онанченко А.В. Способы образования переводческих терминов в русском языке. 2001
5. Webster’s Third New International Dictionary, Webster 3. 1961.
6. Гул Хасан Лексико –семантические особенности перевода научно – технического текста с языка урду на русский язык: Дисс. ... док-ра филос.наук. – Исломобод, 2007. – С.18.
7. Демуанков В.З. Понятие и концепт в художественной литературе и научном языке // Вопросы филологии. –М., 2001. –№1. – С. 35-47; Крюков А.Н. Перевод как интерпретация // Перевод и интерпретация текста. –М., 1988. – С. 41-65; Крюков А.Н. Понимание как переводческая проблема // Перевод и интерпретация текста. – М., 1988. – С. 65-76. Кубруакова Е.С. Номинативный аспект речевой деятельности. –М.: Наука, 1986. – С. 158; Кубруакова Е.С. Роль словообразования в формировании языковой картины мира // Роль человеческого фактора в языке: Язык и картина мира. – М.: Наука, 1988. – С. 212.; Лакофф Дж. Мышление в зеркале классификаторов // Новое в зарубежной лингвистике. Вып 23. Когнитивные аспекты языка. – М.: Прогресс. 1988. – С.12-52.
8. Abdurahmonova N. Mashina tarjimasining lingvistik ta‘minoti (monografiya). – Toshkent: Muharrir, 2018.57b.

9. Abduraxmonova N. O‘zbek tili elektron korpusining kompyuter modellari. Monografiya. – Toshkent, 2021. –B.60
10. <https://cyberleninka.ru/article/n/ochiq-manbali-terminologik-malumotlar-bazasini-loyhalashtirish>
11. Abdurakhmonova, N. (2016). The bases of automatic morphological analysis for machine translation. *Izvestiya Kyrgyzskogo gosudarstvennogo tekhnicheskogo universiteta*, 2(38), 12-7.
12. Abdurakhmonova, N., & Latipova, G. ONTOLOGICAL SYNTACTIC STRUCTURES OF THE UZBEK LANGUAGE FOR CORPUS ANALYSIS. *Xalqaro ilmiy-nazariy anjuman materiallari*, 449.
13. Abdurakhmonova, N., Alisher, I., & Sayfulleyeva, R. (2022, September). MorphUz: Morphological Analyzer for the Uzbek Language. In 2022 7th International Conference on Computer Science and Engineering (UBMK) (pp. 61-66). IEEE.

СЎЗ САНЪАТИ ХАЛҚАРО ЖУРНАЛИ

МЕЖДУНАРОДНЫЙ ЖУРНАЛ ИСКУССТВО СЛОВА

INTERNATIONAL JOURNAL OF WORD ART

Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz

ООО Тадqiqot город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; E-mail: info@tadqiqot.uz

Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz

Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; E-mail: info@tadqiqot.uz

Phone: (+998-94) 404-0000